

INSON HUQUQLARI TIZIMIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY TARBIYANING RO'LI

Behzod Raxmanov Baxshilloyevich

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi

mishkas47uchixa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12527544>

Annotatsiya. Ushbu tezisda inson manfaatlari, inson huquqlari va majburiyatlarini insonlar ongiga singdirish va insonlarda huquqiy tarbiyani oshirish borasidagi qarashlar bayonoti keltirilgan.

Kalit so`zlar: huquqiy ong, huquqiy tarbiya, inson huquqlari, inson majburiyatlar.

THE ROLE OF LEGAL AWARENESS AND LEGAL EDUCATION IN THE HUMAN RIGHTS SYSTEM

Abstract. This thesis presents a statement of views on human interests, human rights and obligations, and on improving legal education in people.

Key words: legal awareness, legal education, human rights, human obligations.

РОЛЬ ПРАВОВОГО ПРОСВЕДЕНИЯ И ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. Данная дипломная работа содержит изложение взглядов на формирование в сознании людей интересов, прав и обязанностей человека и повышение правового образования людей.

Ключевые слова: правосознание, юридическое образование, права человека, обязанности человека.

Inson huquqlari sohasidagi ta'limga har bir fuqaroning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, zo'ravonlik va nizolarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Inson huquqlari sohasidagi ta'limga aholining, ayniqsa, yoshlarning inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishga, ularda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat hissining shakllanishiga, davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarining oshishiga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevralda "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'limga dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-46-sون Qarori qabul qilingan edi.

Ushbu Qaror bilan O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'limga dasturi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

Shuningdek, ushbu Qarordan 2023/2024 o'quv yilidan boshlab professional va oliy ta'limga tizimida «Inson huquqlari», «Ayollar huquqlari», «Bola huquqlari» bo'yicha tegishlichcha o'quv va maxsus kurslar joriy etish;¹

¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iy davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Tom 1.- T.: O'zbekiston, 2017.-233-295 b.

- har yili «Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta’lim va innovatsiyalar» milliy tanlovi o’tkazib borish;

- inson huquqlari sohasida ta’lim olish bo‘yicha elektron platformani yaratish;

- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa solishga qarshi kurashish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar axborot-kutubxona markazlarida Inson huquqlari sohasidagi adabiyotlar yo‘nalishini tashkil etish va boshqa ko‘plab chora-tadbirlar nazarda tutilgan edi.

Ta’kidlash joizki bunga qadar ham mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta’lim bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, 2019-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi huzurida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari uchun Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil qilingan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbar xodimlarining inson huquqlari sohasidagi malakasini oshirish bo‘yicha “Inson qadr-qimmati – eng oliv qadriyat” maxsus o‘quv moduli ishlab chiqilgan va mazkur modul asosida jami 400 nafardan ortiq rahbar xodimlar o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan edi.

Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Yaratilayotgan boshqa qonunlar konstitutsiyaviy me’yorlarga asoslanadi, me’yoriy hujjatlar ham shu asosda ishlab chiqiladi. Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyyati va boshqaruva organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, jumladan, yurtimiz musulmonlari Asosiy Qomusimizda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanmoqdalar. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e’tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizning 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyilgan. Yurtimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Bosh Qomusimiz belgilab bergen teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar. Ular ertangi kunga komil ishonch bilan mehnat qilib, yagona Vatan ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Unda nafaqat xalqchil tamoyillarga, balki ming yillar davomida rivojlanib kelgan milliy ma’naviyatimiz asoslariga ham tayanadi. Zero, har bir millat o‘zining ruhiy-e’tiqodiy ildizlaridan uzilsa, inqirozga uchrashi tabiiydir. Allohga behisob shukrlar bo‘lsinki, sizu biz go‘zal va hur diyorda tinchlik bulog‘idan qonib umr guzaronlik qilib kelmoqdamiz.²

Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o‘tovchi Konstitutsiya – nafaqat davlatchilikning

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-4947-soni. 2017 yil 7 fevral. Manba: lex.uz.

muhim ramzi, balki har bir xalqning milliy g'ururi va o'z-o'zini hurmat qilishining huquqiy timsoli hamdir.

Har bir inson nafaqat o'z huquqlarini balki majburiyatlarini ham bilishi, belgilangan barcha qonunlarga rioya qilishi va vatan uchun yurt uchun o'z jonini ham ayamasligi lozimdir. Bunday insonlarni tarbiyalash uchun esa albatta, huquqiy tarbiya berilishi muhimdir.

Xulosa shuki, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo'ldagi ulug'vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o'z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Xulosa o'mida, yurtimizda yashab, faoliyat ko'rsatayotgan har bir ongli inson O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni – Konstitutsiyamizning barcha moddalarini mukammal bilishi va hayotga to'g'ri tatbiq qilmog'i, shuningdek, o'ziga yuklatilgan burchlarini sezib, to'laqonli ravishda bajarishi lozim bo'ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirgan kishilar ham davrimiz, ham bebaho milliy qadriyatlarimiz me'yorlariga amal qilgan bo'ladi.

Davlatda kostitutsiyaning joriy etilganligi va unga barchaning birdek amal qilishi bu davlatning farovonligi va tinchligini ta'minlaydi. Buning uchun esa har bir shaxs huquqiy tarbiyalangan bo'lishi va huquqiy ong va bilimlarga ega bo'lishi lozimdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947-son.2017 yil 7 fevral. Manba: lex.uz.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b.[Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. T.: O'zbekiston, 2016. -53 p.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iy davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Tom 1.- T.: O'zbekiston, 2017.-233-295 b. [Mirziyoyev Sh. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader.// We will continue our path of national development and take it to a new level]. Volume 1.- T.: Uzbekistan, 2017.-233-295 p.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 -484 b. [4.Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future with our brave and noble people]. T.: Uzbekistan, 2017 -484 p.5.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. [Mirziyoyev Sh.M. The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people]. T.: 2017.